



UDK:811.2

Burxon ABDULXAYROV,
Milliy rassomlik va dizayn instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
E-mail: abdulxayrov@list.ru
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, PhD N.Ramazonov taqrizi asosida

MIYAN BUZRUK'S VIEWS ON THE ISSUE OF SUFISM IN UZBEK LITERATURE

Annotation

Miyon Buzruk Salihov is a literary critic who was seriously engaged in the research of Uzbek classic literature in the 20s and 30s of the last century. His pamphlet entitled “A General View of the History of Central Asia and Uzbek Literature” published in 1930 is a noteworthy work in this regard. This work can be described as the first manual that includes the history of Uzbek classical literature. Because it analyzes the period of Uzbek written literature from the 12th century to the 20th century (before the beginning of modern literature) based on important scientific evidence and unique views. However, this work was not completed in time, that is, it was published in a draft state and reached us. For such reasons, in this article, the thoughts and views about Sufism in this work were assimilated and reorganized, and rudimentary thoughts were developed in this regard. We think that today it is important for Uzbek literature and science to reintroduce these views of the scientist in the field of Sufism into scientific circulation.

Keywords: Tsawwuf, Sufi, Uzbek classical literature, ascetic, sect.

ВЗГЛЯДЫ МИЯНА БУЗРУКА НА ПРОБЛЕМУ СУФИЗМА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

Миён Бузрук Салихов – литературовед, серьёзно занимавшийся исследованием узбекской классической литературы в 20–30-е годы прошлого века. Его брошюра “Общий взгляд на историю Средней Азии и узбекской литературы”, изданная в 1930 году, является примечательным трудом в этом отношении. Этот труд можно назвать первым руководством по истории узбекской классической литературы. В нём анализируется период узбекской письменной литературы с XII по XX век (до начала современной литературы) на основе важных научных данных и уникальных взглядов. Однако этот труд не был завершён в срок, то есть был опубликован в черновом виде и дошёл до нас. По этим причинам в данной статье изложенные в этой работе мысли и взгляды на суфизм были усвоены и переработаны, а зачатки идей получили развитие. Мы считаем, что сегодня для узбекской литературы и науки важно вновь ввести в научный оборот эти взгляды учёного-суфолога.

Ключевые слова: Тасаввуф, суфий, узбекская классическая литература, аскет, секта.

MIYON BUZRUKNING O‘ZBEK ADABIYOTIDA TASAVVUF MASALASIGA DOIR QARASHLARI

Annotatsiya

Miyon Buzruk Solihov o‘tgan asrning 20-30-yillarida o‘zbek mumtoz adabiyotini tadqiq qilish bilan jiddiy shug‘ullangan adabiyotshunos. Uning 1930-yilda nashr etilgan “O‘rta Osiyo va o‘zbek adabiyoti tarixiga umumiy nuqtai nazar” nomli risolasi bu borada diqqatga sazovor asardir. Ushbu asarni o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini o‘z ichiga olgan birinchi qo‘llanma deb ta’riflash mumkin. Chunki unda o‘zbek yozma adabiyotining XII asrdan XX asrgacha (zamonaviy adabiyot boshlanishidan oldin) davri muhim ilmiy dalillar va noyob qarashlar asosida tahlil qilinadi. Biroq, bu asar o‘z vaqtida tugallanmagan, ya’ni qoralama holatda nashr etilgan va bizgacha yetib kelgan. Shu sabablarga ko‘ra, ushbu maqolada ushbu asardagi so‘fiylik haqidagi fikrlar va qarashlar o‘zlashtirilib, qayta tashkil etilgan va bu borada boshlang‘ich fikrlar ishlab chiqilgan. Bizning fikrimizcha, bugungi kunda o‘zbek adabiyoti va fani uchun so‘fiylik sohasidagi olimning ushbu qarashlarini ilmiy muomalaga qayta kiritish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Tsavvuf, so‘fiylik, o‘zbek mumtoz adabiyoti, zohidlik, tariqat.

Kirish. Miyon Buzruk Solihov o‘tgan asr 20–30-yillarida o‘zbek mumtoz adabiyotini tadqiq etish bilan jiddiy shug‘ullangan adabiyotshunos bo‘lib, uning, bu boradagi 1930-yilda nashr etilgan “O‘rta Osiyo va o‘zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash”[1] nomli risolasi, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Ta’bir joiz bo‘lsa, bu asarga o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini o‘zida mujassam etgan ilk qo‘llanma deya ta’rif berish mumkin. Chunki unda o‘zbek yozma adabiyotining XII asrdan to XX asrgacha (jadid adabiyoti boshlangunga qadar) bo‘lgan davri muhim ilmiy dalillar hamda o‘ziga xos qarashlar asosida tahlil etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ammo “O‘rta Osiyo va o‘zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash” asari o‘z vaqtida maromiga yetkazilmasdan, ya’ni qoralama holatida nashr etilib bizgacha yetib kelgan. Masalan, undagi ko‘p fikrlar tarqoq va to‘liq shakllanmagan holda ifodalangan bo‘lib, shuningdek, ularni muayyan tartib asosida tizimlashtirilgan deb ham

bo‘lmaydi. Asardagi bunday kamchiliklarning yuzaga kelishiga, bizningcha, quyidagi omillar sabab bo‘lgan: 1. Tadqiq etilgan mavzuning murakkabligi va uning ilmiy jamoatchilik tomonidan endigina o‘rganila boshlanganligi; 2. O‘sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotidagi beqaror vaziyat mahalliy ziyolilarga xotirjam ijod qilish imkonini bermaganligi; 3. Sho‘ro tuzumining adabiy merosga nisbatan nigilistik munosabati ta’sirida kelib chiqqan qarshiliklar; 4. Asar yaratilgan 30-yillarga kelib reaksiya so‘ng darajada kuchayishi oqibatida fikr erkinligi bilan bog‘liq ahvolning yanada og‘irlashib ketishi va boshqalar.

Alal-oqibat, mana shunday sabablar, va qolaversa, muallifning 1937-yilda – ayni navqiron ijod pallasida stalincha qatag‘on qurboniga aylanishi uning boshqa asarlari singari mazkur asarining ham tugal ko‘rinish kasb etmasligiga sabab bo‘lgan. Lekin yuqorida sanab o‘tilgan bu kamchiliklar mazkur asar ilmiy qimmatiga soya tashlay olmaydi. Chunki bu asarda

sharoit har qancha qiyin bo'lishiga qaramasdan muammo ildiziga chuqur kirish, asosiy masalalar tahlilida xolislik tamoyiliga amal qilish va ulardan to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarish xususiyati bo'rtib turadi. Shuning uchun ham bugungi kunda undagi o'ziga xos qarash va dalillarni qayta tahlilidan o'tkazib ilmiy muomalaga kiritish adabiyotshunoslik uchun ahamiyatlidir. "O'rta Osiyo va o'zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash" kitobidagi mana shu yutuq va kamchiliklarni nazarda tutib, ushbu maqolada asardagi o'zbek mumtoz adabiyotidagi tasavvuf masalasiga doir qarashlar tasavvuf maslagi, O'rta Osiyoda tasavvuf, o'zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy ruh, tasavvufda o'zgarish, tasavvuf ahlidan yetishgan mulkdor va amaldorlar singari ichki mavzular doirasida yoritilishi maqsad qilib belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda, asosan, o'zbek jadidchilik harakati tarixiga oid shu kungacha yaratilgan ilmiy asarlarga tayanildi. Xususan, jadid ziyolilarining O'zbekiston zamonaviy tarixini yaratish borasidagi ilmiy izlanishlari natijalari hisoblangan asarlar va mustaqillik yillarida jadid ziyolilar ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar maqola ilmiy yo'nalishi va metodologiyasini belgilab beradi.

Tahlil va natijalar. Miyon Buzruk tasavvuf ruhining adabiyotda qanday umumlashganini anglash uchun "tasavvuf" o'zi nima ekanligi, uning kelib chiqishi va u qanday qilib islom dinining mag'ziga aylangani kabi masalalar ustida bir qadar mulohaza yuritish lozimligini aytadi. Darhaqiqat, islom dini paydo bo'lib, turli madaniyatlarga ro'baro' kelganida qarama-qarshi ta'sirlar paydo bo'lgan edi. Bu qarama-qarshi ta'sirlar ko'pincha islom diniga ta'sir o'tkazilishiga olib kelgan. Miyon Buzruk islom paydo bo'lishining birinchi asridayoq yunon falsafasi hamda ibroniy, nasroniy, zardushtiy va buddaviylik singari dinlar uning ustidan o'z ta'sirini o'tkaza boshlaganligiga alohida e'tibor qaratgan. Unga ko'ra, bu xususda, ayniqsa, yunonlarning Aflotuniy falsafasi (Platon falsafasi) bilan bog'liq holda yuz bergan hodisalar diqqatga loyiqdir. Qadim tarix va kuchli poydevorga ega bu falsafa islomga qattiq ta'sir o'tkazgan. Buni shundan ham bilish mumkinki, yunon falsafasiga oid kitoblarning arab tiliga tarjima qilinib ommalashtirilishi musulmon jamiyatida "falosifa zumurrasi" (faylasuflar guruhi) paydo bo'lishi va uning jamiyatda faollashishiga olib kelgan. Tabiiyki, bundan xavotirga tushgan din olimlari (ulamolar) bu zumurraga qarshi kurashish zarur deb hisoblashgan. Ular buning uchun, avvalo, falsafani o'rganish lozim deb bilganlaridan, o'zlarida u bilan jiddiy shug'ullanishga majburiyat sezganlar. Natijada ular tomonidan yaratilgan asarlardan ham falsafaga oid fikrlar joy ola boshlagan. Aytish mumkinki, ilk asrlarda uzoq davom etgan keng qamrovli bir "fikriy muboraza" (qarama-qarshi g'oyalar kurashi) boshlangan edi. Chunonchi, bu muboraza hosilasi o'laroq islom dunyosida bir qator oqim, mazhab va maslaklar vujudga kelgan. Ulardan biri turli daraja va yo'nalishlarga ega bo'lgan tasavvuf maslagidir. Bu maslak ahlari shariat ustiga tariqat va haqiqat kabi bir necha darajalar qo'yishgan. Bu darajalarga ko'ra, dinning zohiriy jihatlari amaldan tashqari qolar edi. Masalan, Ahmad Yassaviy:

Afsonadir shariat, farzonadir tariqat.

Durdonadir haqiqat, oshiqqlarga munosib,

– deya shariatdan tariqat va haqiqatni ustun qo'ygan. U bu bilan dinning mazmuniga e'tibor qaratib, uning shaklini ikkinchi oringa qo'yish talabi g'oyasini ilgari surgan. Shuningdek, so'fiylar hatto payg'ambarlik va oxirat azobi kabi dinning asosiy nuqtalariga ta'vil[8] bilan qarab, yolg'iz Allohning tan olishni to'g'ri deb bilishgan. Ko'inot vujudiga yolg'iz ishqni omil sanagan so'fiylar, alal-oqibat, turli darajalarni bosib o'tgandan so'ng, "Fano filloh", ya'ni Olloh

vujudiga foniyl bo'lib kirish darajasiga erishish uchun intilar edilar.

Shariat olimlari avval-boshda tasavvuf ahlilarini dinsiz hisoblaganlar. Boyazid Bastomiy (vafoti – 875), Mansuri Halloj (vafoti – 923), Muhyiddin al-Arabiy (1165–1240) singari mashhur so'fiylar kofirlikda ayblanib turli azoblarga duchor qilingani, hatto ulardan keyingi ikkisi – Mansur Halloj va Muhyiddin al-Arabiylar o'limga hukm etilib, qatl etilganliklari ushbu fikrga dalildir. Lekin bora-bora mashhur so'fiylar tarafidan shariat va tasavvufga oid qarashlarning o'zaro muvofiqlashtirilgani kuzatiladi. Bu borada, ayniqsa, Imom G'azzoliy (vafoti – 1111), Abulqosim Qushayriy (vafoti – 1072) singari kuchli mutasavvif olimlarning roli katta bo'lgan. Bu olimlar o'z faoliyatlarini mobaynida tasavvuf g'oyasini tadqiq etib, uning tamoman islom dininining mag'ziga aylanib ketishini ta'minlaganlar. Zero, ular tomonidan yozilgan asarlarda tasavvufning islom asosiga qarshi emasligi turli dalillar bilan isbotlangan va oxir-oqibat so'fiylarga muxolifatda bo'lgan shariat ulamolari ham bunga ishonitirilgan. Bu yo'nalishdagi harakatni Ahmad Yassaviyda ham ko'rish mumkin. Masalan, u shariat hukmiga ko'ra kofir sanalib o'ldirilgan Mansuri Hallojni: "Rivoyatlar bitildi, holin aning bilmadi, Mansurdek avliyoni, qo'ydilar dorga osib", – deya hurmat bilan yod etgan. Binobarin, shu kabi say'-harakatlar hosilasi o'laroq tariqatga oid amallar o'sha davr muhitida hazm qilinarli bir holga aylana borgan edi. Miyon Buzruk, mana shunday fikr-mulohazalarga tayanib, avval-boshda tasavvuf maslagi islom dinini o'z manfaatlariga yo'lida suyeiste'mol qilayotgan ulamolarga qarshi kurashib maydonga chiqqan bo'lsa, keyinchalik esa u islomning nafaqat mag'zi, balki eng yuqori va qudsiy darajasi bo'lib yetishganligini aytadi.

Miyon Buzruk tasavvufning shakllanish bosqichi Movarounnahr (Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlar, aniqroq aytganda hozirgi O'zbekiston hududi)dan xorijda, ya'ni Xuroson (hozirgi Afg'oniston va Pokiston) va Ajam (hozirgi Iroq va Suriya) o'lkalarida kechganligi, binobarin, u Movarounnahrda shakllanish bosqichidan o'tganidan keyin, islom dinining kelgan yo'li, ya'ni Xuroson orqali yana ham kuchli bo'lib kirib kelganligini ta'kidlagan. XII asrda Buxoroda so'fiylarning ahamiyatga loyiq faoliyatda ekanliklari kuzatilgan. Zero, bu davrda Yusuf Hamadoni (1049–1140) kabi Movarounnahr tasavvufining eng mashhur shaxsiyati Buxoroda faoliyat olib borgan. Uning xonaqohiga Farg'ona, Turkiston va boshqa tarafdardan muridlar jam bo'lishib, undan olgan ta'limotlarini o'z yerlariga borib tarqatganlar. O'zbek yozma adabiyotida muhim bir shaxsiyat hisoblanuvchi Ahmad Yassaviy (vafoti – 1166) ham aslida Yusuf Hamadoniyaning xalfasi edi.

Miyon Buzruk o'zbek mumtoz adabiyotining muayyan jihatlariga ko'ra bir-biridan farqlanib turuvchi "ommaviy adabiyot" va "xavos adabiyoti" oqimlari uchun mushtarak bo'lgan bir tamoyil borligini, u ham bo'lsa, bir necha asrlar mobaynida yaratila borgan bu adabiyot namunalari ayrim oqimlarga mansubligidan qat'i nazar bir xilda islomiy mohiyat va tasavvufiy ruh kasb etganligini qayd etgan. Miyon Buzruk, shuningdek, o'zbek mumtoz adabiyoti namunalari tasavvufning ikki yo'nalishi mavjudligini ham aytgan. Bular: "zuhdiy" va "falsafiy" yo'nalishlardir. Ma'lumki, zuhdiy yo'nalish ko'proq pand-nasihati va da'vat xarakteriga ega bo'lib, o'z davrida uni anglash omma uchun nisbatan oson bo'lgan. Aksincha, tushunilishi ancha murakkab bo'lgan falsafiy yo'nalish esa, o'quvchidan maxsus ko'nikma va malaka talab qilgan. Shuning uchun ham zuhdiy yo'nalish ko'proq "ommaviy adabiyot"ga, falsafiy esa "xavos adabiyoti"ga xosligi kuzatilgan. Agar e'tibor berilsa, o'zbek mumtoz adabiyotining "ommaviy adabiyot" oqimiga xos namunalari turmushning kichik hodisalaridan tortib eng

ulkan voqeliklarigacha tasavvuf nuqtai nazari bilan qarash (mistika) hukmron ekanligi ma'lum bo'ladi. Masalan, unda har qanday hodisa "vahdoniyat", "karomat", "g'ayri ta'sir", "ruhoniyat", "rijol ul-g'ayb", "muvofig ut-tabiati" singari tasavvufiy tushunchalar bilan bog'liq tarzda aks ettirilgan. Shuningdek, mavzlari islom olamida bo'lib o'tgan turli mazhabiy kurashlardan olingan hikoya va qissalarda ham ayni shu hol kuzatilgan. Binobarin, ularda islom firqalarining biri ikkinchisi ustidan qilgan g'alabasi ruhoniy va g'aybiy ta'sirlar bilan bog'liq qilib tasvirlangan. Masalan, xurosonlik mashhur "Abo Muslim" kitobi muallifi o'z mavzusini Umaviy va Abbosiy xalifalar o'rtasidagi siyosiy kurashlardan olgan bo'lib, asar bosh qahramoni bo'lgan Abo Muslimning ikkinchi musulmon toifalari ustidan qilgan harbiy g'alabasi, albatta, biror g'aybiy ta'sirga bog'liq qilib ko'rsatilgan. "Ja'fari ayyor", "Ahmad Zamjiy" va boshqa shunga o'xshash asarlarda ham shu holni ko'rish mumkin.

Miyon Buzruk yuqorida nomlari zikr etilgan asarlar ko'p asrlar mobaynida ommaning sevib eshitadigan qissalari bo'lib, ular gap, to'kma, mehmonxona, choyxonalarda o'sha davrning o'qimishli toifasi – mullalar tarafidan ohang bilan o'qilib turilganligini ta'kidlagan. Bundan tashqari, XVI asrda Hotifiyning roman shaklidagi forscha asaridan tarjima qilingan, "Temurnoma" kabi yarim jiddiy asarda ham Amir Temurning islom o'lkalari va ichki urushlarda qozongan g'alabalari, albatta, g'aybiy ta'sirga bog'lab aks ettirilgan. Masalan, unda Amir Temur qiyin ahvolda qolganida bir guruh oq choponlilar g'oyibdan paydo bo'lib yordam berishlari, keyin qaysidir bir zamonda mashhur bo'lgan avliyolardan biri uning tushiga kirib "ilhom" va "bashorat" berishi kabi lavhalar uchrashi ushbu fikrni tasdiqlaydi.

"Yusuf va Zulayho", "Ibrohim Adham", "Yusuf Ahmad", "Go'ro'g'li Sulton", "Bibi Oysha", "Bibi Seshanba" singari ko'plab omma orasida katta ta'sirga ega bo'lgan asarlar ham ayni shu ruhdadir. Tasavvuf ruhi turkiy adabiyotda shu qadar chuqur ildiz otganki, natijada, hatto, islomdan oldin yaratilgan "O'g'uznoma", "Alanquva", "Dada Ko'rqu" kabi afsonaviy dostonlarning qaytadan islomiy tus berilib, tasavvufiy ruh bilan sug'orilgan variantlari vujudga kelgan. Bu kabi asarlarni tasavvufiy ruh bilan sug'orish amaliyoti "xavos adabiyoti" uchun ham taalluqlidir. Chunonchi, buning tasdig'ini "Zafarnoma", "Jome' ut-tavorixi Fazlulloh", "Ravzat us-safo", "Habib us-siyar" kabi asarlarda ko'rish mumkin. Masalan, Xondamirning "Ravzat us-safo" asarida: "Bir kun qiyin bir zamonda Amir Temur o'ylanib turar edi, birdan g'am yema, xursand bo'l, degan so'zni eshitdi... aniq ma'lum bo'ldiki, bu so'z g'ayb olamidan Amir Temur qulog'iga eshitilgan", deyilishi ushbu fikrga dalil bo'la oladi. Bu holatga "xavos adabiyoti"ga oid badiiy asarlarda ham o'zni bilan duch kelinadi. Darvoqe, xavos adabiyotida ham butunlay bo'lmasa hamki, kerak o'rinlarda tasavvufiy g'oyalar aks ettirilgan. Binobarin, saroylarda va umuman yuqori tabaqa orasida tug'ilib, ko'pincha ishq, kayfu safoni kuylagan badiiy yuksak adabiyot ham so'fiyona ruhdan xoli bo'lmagan. Chunonchi, "xavos adabiyoti"ning Amiriy, Xo'jandiy, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi ulkan namoyandalardan tortib, XX asr boshlarigacha yashagan ko'plab ijodkorlari bu yo'ldan deyarlik og'ishmay ijod qilganlar. Ular, ayniqsa, "Devon" kabi g'azal,

qasida, ruboiy singari lirik asarlardan tarkib topadigan she'riy to'plam boshida keluvchi hamd, munojot va na'tlarda so'fiyona so'z va iboralarni faol qo'llaganlar. So'ngidan esa may, bazm, qoshu ko'zlarni maqtovchi hamda riyokor shayxlarni tanqid qiluvchi asarlarida ham hech bir istiholasiz va ta'vilsiz diniy va tasavvufiy iboralarni ishlatganlar. Ayniqsa, ular tomonidan yaratilgan sof lirik asarlarda tasavvufning negiz masalasi bo'lgan "ishqi haqiqiy" (Allohga bo'lgan muhabbat) deb ataluvchi ma'naviy tuyg'uga juda samimiy munosabatda bo'lingani ko'rinadi[9].

Miyon Buzruk yuqoridagi fikrlardan xulosa qilib, o'zbek mumtoz adabiyotining qadim zamonlardan XX asrgacha davom etib kelgan har bir qismida tasavvuf "umumiy ruh" bo'lgan deya olish mumkinligini ta'kidlagan. Shu bilan birga, olim tasavvuf ruhi bu adabiyotning hamma qismlarida bir xil emasligini, balki u badiiy yuksak adabiyotda estetik yo'l bilan singdirib yuborilgan bo'lsa, omma adabiyotiga oid qismlarda esa pand-nasihati ko'rinishida, ya'ni nisbatan dag'al, ochiq oshkor namoyon bo'la borganligini aytadi. Shuningdek, u adabiyotda tasavvuf ruhining taraqqiy etgan va kuchsizlangan davrlari almashib, kelib-ketib turganligini ham qayd etadi. Chunonchi, umumiy qilib aytganda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy ahvol yaxshi bo'lgan zamonlarda tasavvufning me'yorida bo'lishi va yomonlashgan zamonlarda esa uning xuruj qilgani kuzatilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak, Miyon Buzruk yuqoridagi singari mulohazalardan kelib chiqib, tasavvuf maslagining, asosan, XV asrdan boshlab o'zgarishga uchragan bu manzarasi ko'zdan kechirilganida, uning "xavos adabiyoti" bilan ham, "ommaviy adabiyot" bilan ham birlashib keta olgani sababini anglash mumkin bo'lishini aytadi. Ya'ni uning asrlar davomida shakllangan chuqur ma'noga ega istiholatlari nafis adabiyot namoyandalari uchun juda muhim ifoda tarziga aylangan. Tasavvuf ahlining o'zi yuqori tabaqa qatoriga o'tib, amaldorlar safidan joy olganidan so'ng, tabiiy, uning istiholatlari ham shunga xizmat qila boshlagan. Mana shunday sabablarga ko'ra, mumtoz adabiyotning hamma qismlari o'zida tasavvufiy mazmun tashib kelgan.

Miyon Buzruk o'zbek mumtoz adabiyotini umumiyatla "xavos" va "ommaviy" turlarga ajratar ekan, birinchisi uchun tasavvufning falsafiy, keyingisi uchun esa zuhdiy ko'rinishi xosligini to'g'ri qayd etgan. Zotan, o'zbek mumtoz adabiyoti o'zida azaldan davom etib kelgan xavos va ommaviy adabiyotda tasavvufning falsafiy va zuhdiy ko'rinishlari yaqqol aks etganligini kuzatish mumkin. Biroq Miyon Buzruk to'g'ri ta'kidlaganidek, ko'rinishidagi tafvutidan qat'i nazar tasavvuf, o'zbek mumtoz adabiyotida barcha davr va oqimlar uchun "umumiy ruh" – g'oyaviy-estetik fon sifatida namoyon bo'lgan. Nihoyat, Miyon Buzrukning o'zbek mumtoz adabiyotida tasavvuf masalasiga oid qarashlarini o'rgana turib, tasavvuf adabiyot hodisa sifatida o'zbek mumtoz adabiyotining ramzlar bilan boyishiga, adabiy syujet va obrazlar talqinining chuqurlashishiga olib kelgan, degan xulosaga kelinadi. Binobarin, aynan shunday mohiyat kasb etgandan keyingina o'zbek adabiyoti rivojlangan arab va fors adabiyoti bilan tenglasha oladigan darajaga erishgan va bu uni umumsharq adabiyotining ajralmas qismiga aylanishiga olib kelgan.

ADABIYOTLAR

1. Byzryk M. O'rtasiy va o'zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash. Toshkent: O'znashr, 1930.
2. Abdulkayrov B. Maqbaralar tarixi yoxud Yunusxon va uning maqbarasi haqidagi risola. Toshkent: Fan, 2011.
3. Ramazonov N. O poeticheskoy funktsii koncepta fakr v tvorchestve Alishepa Navoi. "Inostrannyye yazyki v Uzbekistane" 30 (№ 1/2020), 237-249.
4. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob (XII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha). Toshkent-1964.
5. Abdurauf Fitrat. XVI asrdan so'ngra o'zbek adabiyotiga umumiy qarash. Kitobda: Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Toshkent-2000.
6. Istoriya Uzbekistana (Epoxa Amira Temura i Temuridov). Tashkent-2017.
7. Buzruk M. O'rtasiy va o'zbek adabiyoti tarixiga umumiy qarash. Toshkent: O'znashr, 1930.
8. Ta'vil – so'z va tushunchani o'z ma'nosidan boshqa ma'noga burish.
9. N Ramazonov, E Khonnazarov, O Choriev. International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 5, (2020), pp. 1633-1641.